




Buxoro viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020-yil yanvar)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020 - yilning yanvar oyida viloyat korxonalarini tomonidan 1346,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli (mos, yanvar oyiga) davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi,* 108,3 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 94,1 % ni tashkil etdi.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi,mlrd.so'm, fizik hajm indeksi % da



*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'satkichdir.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 14,1 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 41,6 % ga o'sishi xizmat qildi.


Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda - 24,9 % ga hamda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 31,0 % ga pasayish kuzatildi.



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2020-yilning yanvar- oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 14,8 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,1 % ini tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan shag'al qazib olish - 57,5 % neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog'liq burg'ilash xizmatlari - 28,6 % ga, texnik oltingugurt qazib olish esa 13,8 % ga pasaygan.





**Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik
sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i
sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar	2020-yil yanvar	Farqi +/-
Texnik oltingugurt, tonna.	145,0	125,0	-20,0
Shag'al , ming tonna.	7,7	3,3	-4,4
Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog'liq burg'ilash xizmatlari, mln so'm.	16528,7	11796,4	-4732,3




Ishlab chiqaradigan sanoat

2020-yilning yanvar oylida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1267,4 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 94,1 % ini tashkil etdi, o'tgan yilning tegishli (mos yanvar oyiga) davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 114,1 % ni tashkil etdi.



Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da


O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,0 % ni (2019-yil yanvar oyida - 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 1,0 % (1,3 %), o'rta-quyi texnologiyali – 58,0 % (45,5 %) va quiyi texnologiyalisi - 35,1 % (39,2 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida koks va neftni qayta ishlash maxsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi - 51,6 (2019-yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi - 126,9 %), kimyo mahsulotlari rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 1,4 % (2019-yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 121,8 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 12,7 % (2019-yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 104,2 %), boshqa nometall mineral maxsulotlarni ishlab chiqarishning ulushi - 4,3 % (2019-yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 119,3 %) ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati



2020-yilning yanvar oyi davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 100,2 ming litr aroq (2019-yilning yanvar oyiga nisbatan 15,0 % ga o'sgan), 62,9 ming tonna avtomobil benzini (41,7 % ga), 66,0 ming tonna dizel yoqilg'isi (22,2 % ga), ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi shuningdek 6,9 ming tonna un mahsuloti (7,0 % ga) kamaygan.



**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan
ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar	2020-yil yanvar	Farqi +/-
Aroq, ming liter.	87,1	100,2	-13,2
Avtomobil benzini, ming tonna	44,4	62,9	-18,9
Un mahsuloti, ming t.	7,4	6,9	0,5
Dizel yoqilg'isi, ming tonna.	54,0	66,0	12,0



**Ishlab chiqaradigan sanoatda, yirik sanoat korxonalari
tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar	2020-yil yanvar	Farqi +/-
Paxta tolasi, ming t.	16,5	10,1	6,4
O'simlik yog'l tozalangan, ming t.	2,2	3,0	0,8
Dizel yoqilg'isi, ming t.	54,0	66,0	12,0
Suyiltirilgan propan va butan, ming t.	0,8	0,9	0,1
Paxta chigit, ming t.	25,2	16,8	8,4

Ishlab chiqaradigan yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda (2019-yilning yanvar oyiga nisbatan) dizel yoqilg'isi (22,2 %) ga, avtomobil benzini (41,7 %) ga, aroq (15,0 %) ga o'sishini kuzatish mumkin shuningdek o'simlik yog'l (27,7 %) ga, paxta chigiti (33,4 %) ga, pasayish kuzatildi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 55,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,1 % ini) tashkil etdi.

2020-yilning yanvar oyida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 141,6 % ga o'sganligi kuzatildi, 2019-yilning yanvar oyiga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 3,6 m.k ga oshganligini shuningdek issiqlik energiyasi 12,0 % ga kamayganligini kuzatish mumkin.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar	2020-yil yanvar	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	0,2	0,6	0,4
Issiqlik energiyasi, ming gkal.	171,0	150,5	19,5



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'min-lash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 8,9 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar - 32,4 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar - 29,7 % ga oshganligi kuzatildi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar	2020-yil yanvar	Farqi +/-
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar mln so'm	3531,4	4674,5	1143,1
Axlat o'ralarini, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar - mln so'm	26,4	30,8	4,4



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 377,9 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 11,6 % ga oshgan holda, uning jami sanoatdagagi ulushi 28,1 % ni tashkil etdi.


2020-yil yanvar-aprel



2019-yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2020-yil yanvar oyida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 64,1 % dan 64,7 % gacha oshganligi qayd etildi.

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumani 95,5 mlrd. (viloyat iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmning 25,3%), Buxoro shahar 71,2 mlrd. (18,8 %), G'ijduvon tumani. 29,4 mlrd. (7,8 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyatda o'sish sur'ati (111,6 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Qorako'l tumanida (149,2 %), Qorovulbozor tumanida (138,7 %), Romitan tumani da (105,9 %) qayd etildi.



Oziq-ovqat tovarlari 133,3 mlrd so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo'lib o'tgan yilning mos davriga nisbatan 105,5 % ga o'sishini kuzatish mumkin hamda nooziq-ovqat tovarlari esa 244,6 mlrd so'm (115,2 %)ni tashkil qildi.

**Shahar va tumanlar kesimi bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2020-yilning yanvar oyida)**

	Mldr. so'm	Jamiga nisbatan ulushi % da	2019-yil yanvar oyiga nisbatan % da
Buxoro viloyati	377,9	100,0	111,6
<i>shahar va tumanlar:</i>			
Buxoro shahar	71,2	18,8	100,6
Kogon shahar	21,7	5,7	92,1
Olot tumani	10,4	2,8	96,6
Buxoro tumani	27,0	7,1	101,9
Vobkent tumani	18,9	5,0	100,5
G'ijduvon tumani	29,4	7,8	103,6
Kogon tumani	13,9	3,7	102,3
Qorako'l tumani	27,8	7,4	149,2
Qorovulbozor tumani	95,5	25,3	138,7
Peshko' tumani	9,2	2,4	104,7
Romitan tumani	15,7	4,2	105,9
Jondor tumani	24,0	6,4	106,7
Shofirkon tumani	13,2	3,5	103,8

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to'g'ri kelib 25,3 % ni, Buxoro shahriga 18,8% ni shuningdek G'ijduvon tumanida 7,8 % ni, Buxoro tumanida 7,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Qorako'l tumanida (198,7 %), Buxoro tumanida (107,1 %), Jondor tumanida (106,7 %) Qorovulbozor tumanida (105,7 %) qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2020-yilning yanvar oyida)**

	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi % da	2019-yil yanvar oyiga nisbatan % da
Buxoro viloyati	133,3	100,0	105,5
<i>shahar va tumanlar:</i>			
Buxoro shahar	22,2	16,7	85,2
Kogon shahar	11,8	8,9	91,2
Olot tumani	4,2	3,1	98,5
Buxoro tumani	15,6	11,7	107,1
Vobkent tumani	6,9	5,2	101,6
G'ijduvon tumani	14,4	10,8	101,1
Kogon tumani	4,7	3,5	101,5
Qorako'l tumani	19,0	14,3	198,7
Qorovulbozor tumani	1,6	1,2	105,7
Peshko' tumani	4,5	3,4	101,7
Romitan tumani	7,1	5,3	101,5
Jondor tumani	12,8	9,6	106,7
Shofirkon tumani	8,6	6,4	101,5

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to'g'ri kelib, 38,4 % ni, shuningdek, Buxoro shahri 20,0 % ni, G'ijduvon tumani 6,2 % ni, hamda Vobkent tumani 4,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyatdagi o'sish sur'ati (115,2 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida (139,4 %) qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlari
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2020-yilning yanvar oyida)**

	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi % da	2019-yil yanvar oyiga nisbatan %
Buxoro viloyati	244,6	100,0	115,2
<i>shahar va tumanlar:</i>			
Buxoro shahar	49,0	20,0	109,5
Kogon shahar	9,9	4,0	93,1
Olot tumani	6,2	2,5	95,3
Buxoro tumani	11,4	4,7	95,5
Vobkent tumani	12,0	4,9	99,9
G'ijduvon tumani	15,0	6,2	106,1
Kogon tumani	9,2	3,8	102,8
Qorako'l tumani	8,8	3,6	97,0
Qorovulbozor tumani	93,9	38,4	139,4
Peshko' tumani	4,7	1,9	107,7
Romitan tumani	8,6	3,5	109,7
Jondor tumani	11,2	4,6	106,8
Shofirkon tumani	4,6	1,9	108,2



**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan
sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 66,4 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiyligi ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 4,9 % ni tashkil etdi. Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish eng koʻp Kogon shaharda 25,4 mlrd soʻmni Kogon tumanida 19,7 mlrd soʻmni tashkil etdi.

	Xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi	Jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi %
Buxoro viloyati	66,4	4,9
<i>shahar va tumanlar:</i>		
Buxoro shahar	7,3	4,6
Kogon shahar	25,4	38,0
Olot tumani	-	-
Buxoro tumani	3,3	9,8
Vobkent tumani	8,1	31,0
Gʼijduvon tumani	0,1	0,1
Kogon tumani	19,7	50,2
Qorakoʼl tumani	0,6	1,9
Qorovulbozor tumani	-	-
Peshkoʼ tumani	-	-
Romitan tumani	1,8	4,7
Jondor tumani	0,1	0,3
Shofirkon tumani	-	-




**Buxoro viloyati shahar va tumanlar kesimida
sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

	2020-yil yanvar mlrd. soʻm	Fizik hajm indeksi % da
Buxoro viloyati	1346,3	108,3
<i>shahar va tumanlar:</i>		
Buxoro shahar	159,4	117,2
Kogon shahar	66,9	95,4
Olot tumani	29,2	84,2
Buxoro tumani	33,2	85,2
Vobkent tumani	26,2	119,7
Gʼijduvon tumani	100,8	121,1
Kogon tumani	39,4	117,7
Qorakoʼl tumani	29,8	82,7
Qorovulbozor tumani	709,4	116,2
Peshkoʼ tumani	35,8	105,6
Romitan tumani	38,1	108,5
Jondor tumani	35,6	87,3
Shofirkon tumani	42,5	115,5




Buxoro viloyati ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, fizik hajm indeksi % da

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Qorovulbozor tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 52,7 %), Buxoro shahar (11,8 %), G'ijduvon tuman (7,5 %), Kogon shahar (5,0 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



Shahar va tumanlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar, G'ijduvon tumani (2019-yil yanvar oyiga nisbatan 121,1%), Vobkent (119,7 %), Kogon (117,7 %) tumani hamda Qorovulbozor (116,2 %) tumanida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli daraiada oshishida imkon berdi.




**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish
(2020-yil yanvar oyida, ming so'm)**

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
Buxoro viloyati	705,0	197,9
<i>shahar va tumanlar:</i>		
Buxoro shahar	571,0	255,1
Kogon shahar	1098,2	355,8
Olot tumani	297,4	106,4
Buxoro tumani	201,7	164,0
Vobkent tumani	189,4	136,7
G'ijduvon tumani	334,8	97,5
Kogon tumani	510,1	180,9
Qorako'l tumani	183,5	171,4
Qorovulbozor tumani	38979,4	5244,9
Peshko' tumani	294,7	75,4
Romitan tumani	272,4	112,5
Jondor tumani	206,4	139,1
Shofirkon tumani	242,0	75,2



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi (2020-yil yanvar oyida, % da)

Kichik korxona va mikrofirma sub'ektlari tomonidan 338,8 mldr. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 25,2 % ni tashkil etmoqda shuningdek sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan 114,6 % ga o'sishi ta'minlandi.




Viloyatimiz shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Qorovulbozor tumani (0,5 %), Kogon shahar (21,0 %), Peshko' tumani (26,3%) da sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



**Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini
(2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra)**

2020-yil yanvar oyida viloyatda 51 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etildi, shulardan 15 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini hajmidagi ulushi 29,4 %) Buxoro shahrida, 8 tasi (15,7 %) G'ijduvon tumanida, 5 tasi (9,8 %) Peshko' tumanida tashkil etildi.



Buxoro viloyati statistika boshqarmasi
Sanoat statistikasi
bo'limi
Tel.: (71) 230-83-05